

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVACIYALAR VAZIRLIGI**


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi.

№ 23/15-6/P

2023 yil “31” avgust



“TASDIQLAYMAN”

**Qoraqalpog‘iston
tibbiyot instituti rektori**

Ataniyazova O.A.

2023 yil “31” iyun

**JAMOAT SALOMATLIGI VA SOG‘LIQNI SAQLASHNI
TASHKIL ETISH FANIDAN**

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	900000 – «Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot»
Ta‘lim sohasi:	910000 – «Sog‘liqni saqlash»
Ta‘lim yo‘nalishi:	60910400 – «Tibbiy profilaktika ishi»

Fan/modul kodi 2.30		O'quv yili 2023-2024	Semestr 3		Kreditlar 2,0	
Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili Qoraqalpoq, o'zbek, rus			Haftadagi dars soatlari 6	
1	Fanning nomi	Ma'ruza (soat)	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama	
	Jamoat salomatligini va sog'liqni saqlashni tashkil etish	8	22	30	60	
2	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Epidemiologiya, harbiy epidemiologiya moduli o'quv rejaning klinik modullari blokiga taalluqli bo'lib, 3 kursda o'qitiladi va umumiy shifokor pediatriada tibbiy bilimlar asosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.</p> <p>Epidemiologiya, harbiy epidemiologiya moduli talabaga epidemiologik jarayonning xususiyatlari, ko'rinishi, rivojlanish mexanizmi, epidemiyaga qarshi tadbirlar tizimi va mohiyati, qo'llaniladigan preparatlar va texnik vositalar, ulardan foydalanish usullari, davolash muassasalari sharoitida yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi va tarqalish xususiyatlari, kasalxona ichida tarqaluvchi infeksiyalarni epidemiologik nazoratini va oldini olish asoslarini bilishi, xamda amaliyotda ishlata bilish imkoniyatini beradi.</p> <p>Modulni o'qitish uchun klinik epidemiologiya, yuqumli kasalliklar, mikrobiologiya, farmakologiya modullari zamin hisoblanadi. U boshqa modullar bilan birgalikda organizm to'g'risida yaxlit ma'lumotga ega bo'lishni, shu bilan birga talabada klinik fikrlash qobiliyatini rivojlanishini ta'minlaydi.</p> <p>Modul dasturi tibbiy ta'lim sohasining O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti, Pediatriya ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining Malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Mazkur modul dasturi mavzulari tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichi klinika modullarining dastur mavzulari bilan uzviy bog'liq holda yaratiladi.</p> <p>Modul o'qitishdan maqsad - talabalarga aholi orasida kasallanish, aholini o'rtacha umr davomiyligini uzaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zgartirishdir. Ushbu modul asosida zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda, talabalarni insoniyatni turli davrlarda tibbiyotni rivojlantirish masalalari va qonunlari, avvalgi davrlardagi buyuk olimlarning ilmiy meroslari O'z.R.SS huquqiy asoslari, hozirgi zamonda jamoat salomatligi, biostatistikadagi zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish, nazariy, amaliy, uslubiy va tashkiliy bilimlarni hosil qilishdan iborat.</p> <p>Modulning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none">- talabalarga nazariy bilimlar;- jamoat salomatligi modulini tahlil qilish usullari bilan tanishtirish;- aholi salomatligini baholovchi ko'rsatkichlarni o'rganish;- tahlil qilish;- monitoring kabi ishlarni to'g'ri tashkil etishni o'rgatish. <p>Modul bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none">- jamoat salomatligi, unga ta'sir etuvchi havf omillari;- aholi salomatligini saqlash;- mustahkamlash va qayta tiklashni ta'minlaydigan tizimi haqida tasavvurga ega bo'lishi;- aholining barcha qatlamlariga birlamchi tibbiy xizmatni tashkil etishni;- insonni insonga, jamiyatga va tashqi muhitga nisbatan munosabatini tartibga soluvchi bemor va shifokor o'rtasidagi etik va huquqiy meyorlarni;- muassasa faoliyatini marketing boshqaruvda iqtisodiy axborotlarning ahamiyatini bilishi va ulardan foydalana olishi;					

- aholi salomatligi, davolash-profilaktika va sanitariya-epidemiologiya muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- mehnat qobiliyatini ekspertiza qilish malakalariga (shu jumladan amaliy ko'nikmalarga) ega bo'lishi kerak.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil etish" moduliga kirish. Tibbiyot statistikasi asoslari. "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil etish" modul sifatida tibbiyot, gigiena va jamiyat modullari ichidagi o'rni. Respublikada vaxorijiy davlatlarda "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil etish" modulining shakllanishi va rivojlanishi. Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BJSST) tarkibi, BJSSTning asosiy yo'nalishlari, sog'liqni saqlashning turli masalalarini echishda BJSST o'rni va ahamiyati, O'zbekiston Respublikasini BJSST faoliyatida ishtirok etishi. Zamonaviy bosqichda sog'liqni saqlashni tashkil etish.

2-mavzu. O'zbekiston Respublikasi aholi salomatligini muhofaza qilishning qonunchilik asoslari. Statistikaning nazariy asoslari va mazmuni. General va tanlab olingan majmualar haqida tushuncha. Tibbiy ma'lumotlarga ishlov berishda asosiy statistik usullar. Statistik tadqiqot bosqichlari. Mutloq, nisbiy, o'rta miqdorlar, ularni tibbiyotda qo'llanilishi.

3-mavzu. Aholi orasida demografik jarayonlarni o'rganish usullari. Aholi kasallanishi va uni o'rganish usullari, ijtimoiy-tibbiy qirralari. Demografiya, uning tibbiyotda va sog'liqni saqlashdagi o'rni. Tibbiy ijtimoiy jihatlar. Demografik portlash, krizis tushunchalari. Aholi o'sishining muammolari. Oilani oqilona rejalashtirish. Jismoniy rivojlanish - aholi salomatligini ko'rsatkichi sifatida. Jismoniy rivojlanishni o'rganishning sog'liqni saqlashdagi ahamiyati. Jismoniy rivojlanishning mahalliy va regional standartlari. Jismoniy va jinsiy rivojlanishning akseleratsiyasi - ijtimoiy-gigienik muammo sifatida.

4-mavzu. Aholining kasallanishini o'rganishda davlat statistikasining ahamiyati. Kasalliklar, jarohatlar va o'lim sabablarining tasnifi. Aholini kasallanishini o'rganishning usullari va uslublari, kasallanishni o'rganishda ekspert baholash, aholini kasallanish sabablarini o'rganish. Muhim noinfeksion kasalliklarning tibbiy-ijtimoiy aspektlari (yurak qon-tomir kasalliklari, onkopatologiya, travmatizm). Asab-ruhiy kasalliklar, alkogolizm, narkomaniya, toksikomaniya tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil etish moduli, asosiy vazifalari va usullari.

2. Tibbiyot statistikasi va uning sog'liqni saqlashdagi ahamiyati, tibbiyot statistikasi turlari va uni asosiy vazifalari. Statistik tadqiqotlarni tashkil etish va uni bosqichlari.

3. Nisbiy miqdorlar va ularni tibbiyotda qo'llanilishi. O'rta miqdorlar, turlari hisoblash usullari, tibbiyotda qo'llanilishi.

4. Statistik tadqiqot natijalarining ishonchlilik darajasini baholash.

5. Grafik tasvirlar va ularning qo'llanilishi. Korrelyatsiya koeffitsienti, uni baholash usullari, statistik tahlil etishda qo'llanilishi.

6. Dinamik qatorlar, turlari, ko'rsatkichlari va statistik tahlil etishda qo'llanilishi.

7. Standartlashtirish, standartlashtirilgan ko'rsatkichlarining ahamiyati, ularni hisoblash.

8. Aholi orasida demografik jarayon va uni o'rganish. Demografik ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish.

9. Aholining jismoniy rivojlanishi va uni o'rganish usullari.

10. Aholi kasallanishini o'rganish usullari. Aholi kasallanishi ko'rsatkichlari va ularni tahlil qilish.

11. Nogironlik aholi salomatligini baholashdagi o'rni. Nogironlik ko'rsatkichlari va ularni tahlil qilish.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Aholi salomatligi, davolash-profilaktika va sanitariya-epidemiologiya muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ularni taqqosiy baholash;
2. Aholiga davolash-profilaktika yordamini tashkil qilish;
3. Mehnat qobiliyatini ekspertiza qilishni;
4. Sog'liqni saqlash va tibbiy yordamning sifatini nazorat qilishni;
5. Aholini gigienik tarbiyalash va sog'lom turmush tarzini shakllantirish ishlarini o'tkazish;
6. Sanitariya epidemiologiya xizmatini ma'muriy huquqiy asoslarini o'rganish.
7. DSENMni hisobga olish operativ hujjatlarini o'rganish.
8. SEX tarkibiy qamrovli rejasini tuzish va uni o'rganish.
9. SEX ga rahbarlik qilish va uni boshqarish usullarini o'rganish.
10. Talabalar jamoat salomatligini muhofaza qilish sohasida zamonaviy yutuqlarga asoslangan holda Jamoat salomatligi modulini o'rganib, aholi orasida salomatlikni mustahkmlash borasidagi bilimlarni tadbiq etib, boshqa modullarni o'rganishda, shuningdek kelgusida olingan bilimlarini shifokorlik kasbiy faoliyatida qo'llay olishlari kerak.

11. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kasalliklar kelib chiqishini va tarqalishini oldini olish;

12. Kasalliklarning erta diagnostikasi, kelib chiqish sabablari va sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish;

13. Atrof-muhitning inson sog'ligiga zararli tasirini bartaraf etishga qaratilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

14. Profilaktik tibbiy ko'riklar o'tkazish, sog'lom va surunkali kasalliklari bo'lgan aholini dispanserizatsiyasi va dispanser kuzatishni amalga oshirishga tayyor bo'lish;

15. Aholi sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumotlarni ijtimoiy-gigienik usullarni qo'llagan holda yig'ish va tibbiy statistik tahlil qilish;

16. Aholi, bemorlar va ularning oila a'zolarida o'zi va atrofda qilayotgan sog'ligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan motivatsiyaga tayyorgarlik;

17. Tibbiy muassasalar va ularning struktur tuzilmalarida fuqarolar sog'ligini saqlashni tashkillashtirish va boshqarish tamoyillarini qo'llash;

18. Asosiy tibbiy statistik ko'rsatkichlarni qo'llagan holda tibbiy yordam ko'rsatish sifatiga baho berishga tayyorgarlik;

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Jamoat salomatligi va sog'likni saklashni tashkil etish modulning o'rni, asosiy komponentlari.

2. Tibbiyot statistika, uning sog'liqni saqlashdagi ahamiyati, tibbiyot statistikasi turlari va ularning asosiy vazifalari.

3. Statistika tadqiqotlar tashkil etish va uning boskichlari.

4. Nisbiy miqdorlar, ularning tibbiyotda qo'llanilishi.

5. O'rtacha miqdorlar, turlari, hisoblash usullari, tibbiyotda qo'llanilishi.

6. Statistik tadqiqot natijalarining ishonchlik darajasini baholash.

7. Grafik tasvirlar, ularning qo'llanilishi.

8. Korrelyatsiya koeffitsienti, uning baholash usullari, statistik tahlil etishda qo'llanilishi.

9. Dinamik qatorlar, turlari, ko'rsatkichlari, statistik tahlil etishda qo'llanilishi.

10. Standartlashtirish, standartlashtirilgan ko'rsatkichlarining ahamiyati, ularni hisoblash.

11. Aholi orasida demografik jarayon va demografik ko'rsatkichlarni hisoblash usullari.

12. Aholining jismoniy rivojlanishi va uning o'rganish usullari.

13. Aholi kasallanishlari ko'rsatkichlari va ularni hisoblash. Xalqaro kasalliklar tasnifi.

14. Nogironlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari. Aholi salomatligini baholashda nogironlik ko'rsatkichlarining o'rni.

IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

UK-1'. Abstrakt fikrlash, xodisalami tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK-4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga

	<p>tayyorlik;</p> <p>UKK-1². Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;</p> <p>UKK-4. Kasbiy xatolarning oldini olish uchun o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish qobiliyati;</p> <p>KK-21³. Ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish qobiliyati.</p>
	<p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> •ma'ruzalar; •seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); •interfaol keys-stadilar; •guruhlarda ishlash; •taqdimotlarni qilish; •individual loyihalar; •jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
	<p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
	<p>Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari ro'yxati</p> <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. B. Mamatkulov. Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish, "ILM ZIYO" Toshkent. 2020 y. 2. B. Mamatkulov. Общественное здоровье и управление здравоохранением. 2-изд. Учебник. 2020 г. 3. B. Mamatkulov. Tibbiyot statistikasi (biostatistikasi) asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2005 y. <p>Qo'shimcha adabiyotlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qa'tiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017 y. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "Ozbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "Ozbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatining birgalikda barpo etamiz 2016 yil. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "Ozbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 4. O'zbekiston Respublikasi Prizedenti farmonlari, vazirlar mahkamasi qarorlari, SSV buyruqlari. <p>Internet saytlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. OJNI – Online Journal of Nursing Informatiks. 2. Journal of Nursing Research 3. www. Pub.med, Medline 4. www.tma.uz 5. www.gov.uz 6. www.minzdrav.uz 7. www.ziynet.uz 8. http:// zdrav.ru 9. http://www.medvestnik.ru 10. www.who.int

	<p>11.http://catalog.fmb.ru/Uzbekistan.shtml 12.http://www.ozz.medexplorer.ru/vte.php</p>
	<p>Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Institut kengashining 20 ____ yil “ ____ ” dagi “ ____ ” – sonli bayonnomasi.</p>
	<p>Fan modul uchun ma’sullar: Palimbetov A.. Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti, “Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya” kafedrası assistenti. Mualliflar jamoasi – Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti “Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya” kafedrası professor-o‘qituvchilari.</p>
	<p>Taqrizchilar: Ataxanova D.O. – QMI “Gigiena va atrof muhit” kafedrası mudirasi PhD Niyazova G.T.– Qoraqalpog‘iston Respublikasi OITS-ga qarshi kurash markazi t.f.n.</p>